



Xorijda jadidchilik harakatining o'rganilishi

Murotova Muxlisa Yorqin qizi

BuxDPI Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi, bakalavr

Telefon raqami: +99888 238 99 11

E-mail: muratovamuxlisa358@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada Turkistonda jadidchilikning vujudga kelishi, yangi yo'nalish namoyondalari, ularning g'oyalari va shuningdek, o'zbek jadidlarining xorijlik tarixchi olim, jurnalist va professorlar tomonidan o'rganilishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, rus-tuzem maktablari, mahalliy maktablar va yangi ochilgan usuli jadid maktablarining faoliyati xususida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadid, modernizatsiya, ma'rifat, Edward Allworth, Ingebord Baldauf, Ovro'pa, Rusiya, mudarris, muxtor, Ismoilbey Gasprinskiy, Hisao Komattsu, usuli savtiya, usuli jadid, tolibi ilm, tatar, tujjor, burjuaziya, islom, demokratiya, korrupsiya.

Kufrning jamiyati parishonligimizdan,
Bo'htonning obodligi vayronaligimizdan,
Islomning o'zi hech o'zgarmasdir,
Endi bo'lgan har ayb biz musulmonlardan¹.

Biz o'zbek yoshlari Turkistonni bosqindan, qoloqlik botqog'idan, arosatdan ozod qilishga bel bog'lagan, buni qurolli qo'zg'alon emas, o'qish, ta'lim sifati bilangina amalga oshirishga shubha qilmagan ma'rifatparlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

¹ Fitrat Buxoroli. Munozarai mudarrisi buxoroyi ba yaknafar farangi dar Hindiston darborayi maktabi jadida. -Istanbul: Matbaai Ismoiliya, 1911. 67-bet.



Turkiston jadidlari ya'ni yangi yo'nalish tarafdorlari XX asr boshida ma'rifat, islohotlar va modernizatsiyani targ'ib qilishga intilganlar. Agar ularning g'oyalari va harakatlari amalga oshirilganida va hozirgi kungacha davom etganida ko'p jihatdan Turkiston yangilangan bo'lardi.

Xususan, ma'rifat va ta'lim, iqtisodiy rivojlanish, madaniyat va san'at, ijtimoiy sohada, siyosiy tuzumda bir qator o'zgarishlar va yangilanishlarni ko'rgan bo'lardik.

Masalan, ta'lim tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lar edi. Jadidlar ma'rifatni targ'ib qilganlari sababli, bugungi kunda keng va sifatli ta'lim olish imkoniyati mavjud bo'lar edi. Ta'lim jarayonlari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lar edi.

XX asr o'zbek jadid adabiyoti nafaqat yurtimizda, balki, xorijda ham izchil o'rganilgan. Masalan, Edward Allworth, Elen de Enkaus, Ingebord Baldauf, Hisao Komatsu, Timur Kojauglu, Yusuf Avji kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Shulardan Olmon xalqining taniqli olimasi I. Baldaufning "XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar" nomli to'plamini misol qilib aytishimiz mumkin. Ushbu to'plam Turkiston jadidchilik tarixi va uning mashhur namoyondalari ijodiga bag'ishlangan. Bu to'plamga Ingebord Baldaufning Fitrat, Behbudiy, Qodiriy, Cho'lpon haqidagi qarashlari saralab olingan.

Behbudiyning "Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda" deb nomlangan maqolasi haqida I. Baldauf shunday fikrlarni yozadi: "Ma'rifatga yuz burish, xo'jalik yuritishda ilg'or zamonaviy yutuqlardan foydalanish, dunyo bilan hamjihatlik, madaniy muassasalarni kengaytirishni yurtdoshlariga uqtirmoqchi bo'ladi".

Bundan tashqari Baldauf o'zbek adiblari she'rlarini o'z ona tili ya'ni nemis tiliga tarjima qilgan va o'zi aytishi bo'yicha Abdulla Oripovning she'rlarini tarjima qilish unga sal qiyinchilik tug'dirgan.



Olimaning o'z ishini sevishi va o'zbek jadid adabiyotiga bo'lgan muhabbati ilmiy izlanishlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir asar va ijodkorga hurmat bilan qaraganligi tahsinga loyiq.

Edward Allworth – Markaziy Osiyoga ixtisoslashgan amerikalik tarixchi. Ushbu tarixchi olim XX asr boshidagi islohotchi yozuvchi Abdurauf Fitrat, uning asarlari, chig'atoy tili va XV asrgacha bo'lgan o'zbek tili haqidagi ma'lumotlarni atroflicha o'rganadi. Edward Allworth shuningdek, Duk universiteti nashriyotidagi Markaziy Osiyoga oid kitoblar turkumiga muharrirlik qilgan. O'rta Osiyo tarixiga oid ko'plab kitoblar nshr ettirgan. Jumladan, Uzbek Literary Politics (1964), Central Asian Publishing and the Rise of Nationalism (1965), Central Asia: A Century of Russian Rule (1967), The Tatars of Crimea: Return to the Homeland (1998), The Preoccupations of Abdurauf Fitrat, Bukhara Nonconformist: An Analysis and List of His Writings (2000) shular jumlasidandir.

Yana bir xorijlik tarixchilardan biri bu Timur Kocaog'lu. U amerikalik tarixchi olim, yuqorida nomi qayd etib o'tilgan Edward Allworth bilan maktub orqali yaqindan tanishib olgan va ikkalasi ham Markaziy Osiyo tarixi, jadidchilik harakati va uning namoyondalarini o'rganishgan. Timur Kocaog'lu ayniqsa O'rta Osiyo xalqlarining adabiyotiga juda qiziqqan. U bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Xususan, "Yas Turkistan: Turkistan Milli istiklal Fikrine Hizmet Eden Aylik dergi (Paris). Cilt. 1 (1929-1930), "Reform Movements and Revolutions in Turkistan: 1900-1924, "Sevgi so'zlari". Toshkent: Qamar Mediya, 2021.

Keyingi tarixchi olim Hisao Komatsu – bu shaxs Yaponiyaning Sankt-Peterburgdagi vaqtincha muxtor elchisi- Nishi Tokujirou edi.

U O'rta Osiyoga sayohat qilgan va o'zining hisobotida quyidagilarni aytib o'tgan:

“O'rta Osiyo xalqi islom diniga qattiq bog'langan. Inson nima qilsa ham, doimo islom kitoblaridagi amrlarga bo'ysunadiki, bu hech o'zgarmas dastur holiga keltirilgan. Ular zamonaviy shart-sharoit yoki ijtimoiy tuzumda biror qiyinchilikka uchrashsa, buni ham



Allohning taqdiriga bog'lashadi.Ovro'pa madaniyatini O'rta Osiyo jamiyatiga tatbiq etishning iloji bo'lmasa kerak.Agar musulmon ziyolilari zamonaviy bilimlarni egallashsa yaxshi bo'ladi,biroq O'rta Osiyo xalqi hozirgi holida yashashi mumkin emas;bilimsizlik ularni boshqa xalqlar qo'li ostida yashashga majbur qiladi."

Shubhasiz,o'sha davrda O'rta Osiyoga borgan har qanday xorijlik uning fikrini tasdiqlashi mumkin edi.Ammo o'sha tarixiy muhit o'rganilsa,O'rta Osiyo hayotini qo'lidan kelganicha o'zgartirishga uringan shaxslar borligi ham ma'lum bo'lardi.

Bu o'rinda yaponiyalik olim Komattsu uch jadidni:Ismoilbey Gasprinskiy,Abdurashid Ibrohim va Abdurauf Fitratlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Yana shuni aytib o'tish kerakki,Usmonli yozuvchisi Jalol Nuri Bey bir asarida: "Musulmonlar Ovro'paning bosqinidan qutulmoq istasalar,Ovro'pa sotsialistlariga qo'shilishlari kerak",deb yozadi.Bundan kelib chiqib Fitrat quyidagilarni yozgan:"O'shanda musulmonlarga Yaponiya hukumati ham yordam bermaydi,chunki u ham jahongir mamlakat edi.Faqat boshqalarga o'xshab bizni yo'q qilishni xohlamagan bir davlat borki,u ham Rossiya sovetlar hukumatidir"².

Rusiya musulmonlarining uyg'onishi va ularni birlashtirish yo'lida faoliyat olib borgan shaxslarning eng mashhuri, albatta Ismoilbey Gasprinskiydir.U Rossiya,Parij (1872-1874) kabi chet davlatlarda bilim egallab Turkiston o'lkasida ham buni yoyishga xizmat qildi.Gasprinskiy tomonidan ochilgan usuli jadid maktablari va u tomonidan ishlab chiqilgan usuli-savtiya (harf- tovush usuli) mahalliy aholining o'sishiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shdi.Din va axloq darslari ustuvor bo'lgan an'anaviy maktablarga qiyoslaganda,bu maktabda avval o'qish va yozish o'rgatiladi,keyin boshqa fanlarga e'tibor beriladi.Ismoilbey 1881-yilda "Rusiya musulmonlari" nomli ruscha asarini yozdi va unda faqat Rossiya musulmonlarining emas,balki butun islom dunyosining ijtimoiy muammolarini chuqur tahlil qiladi.Bu asarida "Rusiya bilan musulmonlar o'zaro ma'rifatsizlik va

² Fitrat.Sharq siyosati (Nashrga tayyorlovchilar:B.Ergashev va I.G'aniyev)-Buxoro,1992.28-bet.Fitratning "Tanlangan asarlar"i 3-jildidagi ayni maqolaga qiyoslanganda shunday taassurot qoldiradi.-B.K.



ishonchsizlik tufayli taxminan yuz yillardan beri bir-biridan uzoqlashmoqda, rus yozuvchilari ko'p yillar bu masalani islom dining boshqa dinlarga dushmanligi bilan izohlashga intildilar. Ammo haqiqatda ayb islom dinida emas, bu muammo Rusiya musulmonlariga qarshi olib borilgan adolatsiz siyosatning hozirgacha davom etib kelayotganidadir" deb yozadi. Shu tariqa tatar burjuaziyasi XIX asrning oxirlaridan boshlab, Rusiya bilan O'rta Osiyo orasidagi o'zaro tijoriy hamkorlikka xizmat qildi. Ismoil Gaspiralidan keyin XX asr boshlarida O'rta Osiyoga kelgan tatar tujjorlari Turkiston shaharlarida usuli jadid maktablarining maydonga kelishiga ko'maklashdi.

Bartold fikricha ,qisqa bir vaqtdan keyin jadid maktablari Turkistondagi rus idorasiga qarashli mahalliy rus maktablari (Russko-tuzemnaya shkola) bilan raqobat qila boshladi³.

Yana bir tatar jurnalisti Abdurashid Ibrohim Buxoroning ahvoli to'risida shunday yozadi:

"Tolibi ilmlar bilan juda ko'p marta gaplashdim, ularning istedodiy fitratini sinab ko'rdim. Qisman Buxoro talabalari zamon talablariga javob beradi"⁴.

Fitrat Abdurashid Ibrohimning xizmatlarini e'tirof etadi. O'zi ham yapon mudarrislari bilan buxorolik mudarrislarning faoliyatini tahlil qiladi. Ular ham buxorolik mudarrislar kabi maktab ochib, bolalarni o'qitgani uchun hech kimdan pul olmas ekanlar. Balki o'z pullarini ta'lim uchun sarflar ekanlar"⁵.

Jadidlar g'oyalari bugungi kungacha yetib kelganida edi, Turkiston hozir butunlay boshqacha qiyofada bo'lgan bo'larmidi?

Ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari qadrlangan jamiyat barpo etilgan, ayollar huquqlari va imkoniyatlari kengaytirilgan bo'larmidi? Demokratiya va huquqiy davlat tamoyillari asosida siyosiy tizim shakllangan, xalqning ovozi eshitilib, korrupsiya va hokimiyat suiiste'moli kam bo'larmidi?

³ Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Sochineniye. Tom 2. -M., 1962. Str. 310 -312.

⁴ Abdurashid Ibrohim. Olami islom: Yaponiya intishori islomiyat. 1-jild. -Istanbul, 1910. 21-bet.

⁵ Fitrat Buxoroli. "Munozara", 14-bet.



Madaniy merosga bo'lgan e'tibor ortgan bo'larmidi?Jadidlarning san'at va madaniyatni rivojlantirishga bo'lgan harakatlari tufayli,bugungi kunda milliy madaniyat va san'at juda boy bo'lib,xalqaro miqyosda tan olingan bo'larmidi?Iqtisodiy o'sish va rivojlanish yuqori bo'lib,sanoat va qishloq xo'jaligi zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan bo'larmidi?

Umuman olganda,jadidlarning g'oyalari amalga oshirilganida,Turkiston bugungi kunda zamonaviy,rivojlangan va demokratik jamiyatga aylangan bo'lar edi.